

TILSHUNOSLIKDA "TERMINOLOGIK MA'LUMOTLAR BAZASI" TUSHUNCHASI VA UNING ZAMONAVIY TALQINI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17477673>

Abduxalimov Abdulaziz Abdumutal o'g'li

"Tillar va gumanitar fanlar" kafedrasi assistenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada terminologik ma'lumotlar bazalarining mazmun-mohiyati, ularni tashkil etuvchi asosiy tarkibiy qismlar hamda xalqaro standartlarga asoslangan boshqaruv tamoyillari yoritiladi. Xususan, ISO 12620 standarti doirasida ma'lumotlar kategoriyalarini belgilash va ularning terminologik jarayondagi o'рни tahlil qilinadi. Shuningdek, institutsional, sohaviy va milliy terminologiya banklarining vazifalari hamda zamonaviy tilshunoslikdagi tutgan o'рни ko'rsatib o'tiladi. Terminologik ma'lumotlar bazalarining afzalliklari bilan bir qatorda, ularni yaratish va rivojlantirishda uchraydigan muammolar ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari terminologik izchillikni ta'minlash, ko'p tilli kommunikatsiyani rivojlantirish va tarjima jarayonlarini samaralashtirishda bunday bazalarning muhim ahamiyatga egaligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar:

Terminologik ma'lumotlar bazasi; terminologiya; ISO 12620; ma'lumotlar kategoriyalari; institutsional terminologiya; milliy terminologiya banklari; ko'p tilli kommunikatsiya; termin izchilligi.

Hozirgi zamon tilshunosligida terminologiya sohasining tez rivojlanishi, xususan, ko'p tillilik, globallashtirish va raqamli texnologiyalarning keng qo'llanilishi terminologik ma'lumotlar bazalarining yaratilishi va boshqarilishiga bo'lgan e'tiborni sezilarli darajada oshirdi. Terminologik ma'lumotlar bazasi – bu maxsus predmet sohalariga oid terminlarni yig'ish, saqlash, tartibga solish va tarqatish uchun mo'ljallangan tizimli elektron resurs bo'lib, u tarjima, lokalizatsiya, texnik hujjatlar tayyorlash va ko'p tilli kommunikatsiya jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy terminologiya nazariyasi va amaliyotida terminologik ma'lumotlar bazalarining o'рни tobora ortib bormoqda, chunki ular nafaqat tilshunoslik tadqiqotlari uchun, balki xalqaro standartlashtirish, tarjima va sun'iy intellekt tizimlarini rivojlantirish uchun ham zaruriy vosita hisoblanadi.

Terminologik ma'lumotlar bazasining ilmiy-nazariy asoslari XX asr o'rtalarida, xususan, Yevgeniy Vyusterning terminologiya nazariyasiga qo'shgan hissasidan keyin shakllanishni boshladi. U terminologiyani tilshunoslikning alohida sohasi sifatida tashkil etishga harakat qilib, konseptga asoslangan yondashuv, tizimlilik va standartlashtirishni asosiy prinsiplar sifatida belgiladi. Uning g'oyalari keyinchalik xalqaro standartlashtiruv tashkilotlari, komissiyasi tomonidan qabul qilindi va hozirgi kunga qadar terminologik ma'lumotlar bazalarini yaratish va boshqarishda qo'llanmoqda. Biroq, zamonaviy tilshunoslik fani terminologiyaga nisbatan yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Kognitiv tilshunoslik, korpus lingvistikasi va hisoblash tilshunosligining rivojlanishi terminologik ma'lumotlar bazalarining tuzilishi, mazmuni va maqsadlariga yangicha qarashni taqozo etmoqda.

“Terminologik ma'lumotlar bazasi” degan tushuncha zamonaviy tilshunoslikda turli xil ta'riflarga ega bo'lishiga qaramay, uning asosiy mohiyati konseptga yo'naltirilgan terminologik ma'lumotlarni to'plash, saqlash va tarqatish tizimi sifatida belgilanadi. Terminologiya boshqaruvi sohasida konseptga asoslangan terminologik yozuvlar va ularga bog'liq ma'lumotlarni, odatda ko'p tilli formatda o'z ichiga olgan ma'lumotlar bazasi hisoblanadi⁵¹. Har bir yozuv quyidagi elementlarni o'z ichiga olishi mumkin: terminning o'zi, uning boshqa tillardagi ekvivalentlari, predmet sohasi, ta'rif, kontekst, grammatik xususiyatlar, stilistik belgilar, manbalar va boshqa metama'lumotlar.

Terminologik ma'lumotlar bazasini oddiy lug'atdan yoki tarjima xotirasidan (translation memory) ajratib turadigan asosiy xususiyat shundaki, u konseptga yo'naltirilgan tuzilmaga ega. Bu shuni anglatadiki, ma'lumotlar bazasining asosiy birligi til birligi (term) emas, balki konsept (concept) hisoblanadi. Har bir konsept uchun turli tillardagi ekvivalent terminlar, ularning ta'riflari va boshqa tegishli ma'lumotlar bir joyda tizimli ravishda saqlanadi. Bu yondashuv terminologik izchillikni ta'minlash va ko'p tilli hujjatlarni yaratishda konseptual aniqlikni saqlashga yordam beradi. Masalan, ingliz tilidagi “save” termini kontekstga qarab turli xil ma'nolarga ega bo'lishi mumkin: kompyuter dasturida “saqlash”, moliyaviy kontekstda “tejash” yoki sport terminologiyasida “himoya qilish” degan ma'nolarni anglatishi mumkin. Terminologik ma'lumotlar bazasida bu konseptlar alohida yozuvlar sifatida qayd etiladi va har biri o'zining konteksti, ta'rifi va ko'p tilli ekvivalentlariga ega bo'ladi.

Terminologik ma'lumotlar bazalarining nazariy asoslari bir nechta tilshunoslik yo'nalishlari bilan chambarchas bog'liq. Birinchi navbatda, klassik terminologiya

⁵¹ Schmitz K.D. Terminology management. In K. Brown (Ed.), Encyclopedia of Language and Linguistics (2nd ed., Vol. 12, pp. 574-583). – Oxford: Elsevier, 2006.

nazariyasi Yevgeniy Vyusterning konseptga asoslangan yondashuviga tayanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, uning ta'limotiga ko'ra, terminologiya fani konseptlar tizimini o'rganadi va bu konseptlar turli tillarda terminlar orqali ifodalanadi. Uning semiotik uchburchak modeli asosida konsept, obyekt va termin o'rtasidagi munosabatlar aniqlanadi: obyekt real dunyo hodisasi yoki narsasini, konsept esa bu obyektning inson ongidagi aks etishini, termin esa konseptning til orqali ifodalanishini bildiradi. Bu model terminologik ma'lumotlar bazalarini loyihalashda asosiy prinsip bo'lib qolmoqda, chunki u konseptlarni markaziy birlik sifatida belgilaydi va terminlarni konseptlarning ko'p tilli ifodalari sifatida qarashni talab qiladi. Biroq zamonaviy terminologiya nazariyasi klassik Vyuster ta'limotining ba'zi cheklovlarini tan oladi va yangicha yondashuvlarni taklif etadi. Rita Temmerman tomonidan ishlab chiqilgan sotsio-kognitiv yondashuv terminologiyaga dinamik va kontekstga bog'liq hodisa sifatida qaraydi. Uning fikricha, klassik terminologiya nazariyasi ko'p konseptlarni aniq chegaralangan va barqaror birliklar sifatida tasvirlashga urinadi, lekin aslida ko'plab ilmiy va texnik konseptlar vaqt o'tishi bilan o'zgaradi, rivojlanadi va turli kontekstlarda har xil ma'nolarni namoyon qiladi⁵². Sotsio-kognitiv yondashuv shuni ta'kidlaydiki, terminologik ma'lumotlar bazalari nafaqat statik terminlarni saqlash, balki konseptlarning evolyutsiyasini va ularning turli kontekstlardagi foydalanishini aks ettirishi kerak.

Kognitiv tilshunoslik tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ko'plab konseptlar qat'iy chegaralarga ega emas, balki prototipik markazga va periferiyaga ega bo'ladi. Masalan, "qush" konseptining prototipik vakili chumchuq yoki kaptarga o'xshash hayvonlar bo'lishi mumkin, lekin tovuq yoki pingvin kabi turlar kategoriyaning periferiyasida joylashadi. Bu bilimlar terminologik ma'lumotlar bazalarini loyihalashda qo'llanilishi kerak, chunki ular terminlar o'rtasidagi munosabatlarni yanada aniq va to'liq tarzda ifodalash imkonini beradi.

Anglashiladiki, zamonaviy tilshunoslik fani va amaliy lingvistika sohasida terminologik ma'lumotlar bazasi muhim o'rin tutadi. Globallashuv jarayonlari, texnologik taraqqiyot va xalqaro hamkorlikning kengayishi terminologiya sohasida yangi yondashuv va vositalarni talab qilmoqda. Terminologik ma'lumotlar bazasi ana shunday zamonaviy vositalardan biri bo'lib, u terminologik axborotni tizimli ravishda saqlash, boshqarish va tarqatish imkonini beradi. Chunki terminologik ma'lumotlar bazasi – bu ma'lum bir soha yoki sohalar uchun maxsus terminlarni, ularning ta'riflarini, ekvivalentlarini va boshqa tegishli ma'lumotlarni elektron

⁵² Temmerman R. Towards New Ways of Terminology Description: The sociocognitive approach. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2000.

shaklda tizimli ravishda saqlovchi axborot tizimi hisoblanadi⁵³. Bu tizim kompyuter texnologiyalari asosida yaratilgan bo'lib, foydalanuvchilarga terminologik ma'lumotlarga tezkor va samarali kirish imkoniyatini taqdim etadi.

Terminologik ma'lumotlar bazasi oddiy lug'atlardan farqli ravishda, terminlarning nafaqat tarjimasini, balki ularning tushunchaviy tizimidagi o'rnini, muloqot doirasini, foydalanish kontekstini va boshqa metalingvistik xususiyatlarini ham aks ettiradi⁵⁴.

Terminologik ma'lumotlar bazasining tuzilmasi uning maqsadi va qamrov doirasiga bog'liq holda turlicha bo'lishi mumkin. Biroq aksariyat zamonaviy terminologik ma'lumotlar bazasi quyidagi asosiy komponentlarga ega⁵⁵:

Tushuncha darajasi terminologik ma'lumotlar bazasining markaziy qismi hisoblanadi. Bunda har bir tushuncha alohida identifikatsiya raqami bilan belgilanadi va uning barcha xususiyatlari qayd etiladi⁵⁶. Tushuncha darajasi tildan mustaqil bo'lib, bir xil tushuncha turli tillardagi terminlar bilan bog'lanishi mumkin.

Terminologik kirish darajasi har bir tilda ushbu tushunchani ifodalovchi terminlarni o'z ichiga oladi. Bu qismda terminning o'zi, uning grammatik xususiyatlari, stilistik ko'rsatkichlari va boshqa lingvistik ma'lumotlar saqlanadi⁵⁷. Bir tushunchaga bir nechta sinonim terminlar mos kelishi mumkin, ularning har biri alohida qayd etiladi.

Ma'lumotlar kategoriyalari terminologik ma'lumotlar bazasining muhim elementi bo'lib, ular tushuncha va terminlar haqida turli xil axborotni saqlash uchun xizmat qiladi. Bunga ta'riflar, kontekstual misollar, foydalanish sohasi, manba ko'rsatkichlari, tasvirlar va boshqa qo'shimcha ma'lumotlar kiradi⁵⁸.

Terminologik ma'lumotlar bazalarini yaratish va boshqarishda xalqaro standartlarga rioya qilish katta ahamiyatga ega. ISO (Xalqaro standartlashtirish tashkiloti) tomonidan ishlab chiqilgan bir qator standartlar terminologiya sohasida qo'llaniladi. ISO 12620 standarti terminologik ma'lumotlar kategoriyalarini belgilaydi va ularning tavsifini beradi. Mazkur standartlar seriyasi terminologik ma'lumotlar bazalarini loyihalash va ishlab chiqish jarayoniga bag'ishlangan bo'lib, terminologik ma'lumotlar bazalarining arxitekturasini, ma'lumotlar modeli va foydalanuvchi interfeysi bo'yicha tavsiyalar beradi. Bu standartlarga rioya qilish

⁵³ Wright S.E., Budin G. *Handbook of Terminology Management*. Vol. 1. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1997.

⁵⁴ Sager J.C. *A Practical Course in Terminology Processing*. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1990.

⁵⁵ ISO 26162-1:2019. *Management of terminology resources – Terminology databases – Part 1: Design*.

⁵⁶ Arntz R., Picht H., Mayer F. *Einführung in die Terminologearbeit*. 7. Auflage. Hildesheim: Georg Olms Verlag, 2014.

⁵⁷ Felber H. *Terminology Manual*. – Paris: UNESCO and Infoterm, 1984.

⁵⁸ ISO 12620:2019. *Management of terminology resources – Data category specifications*.

terminologik ma'lumotlar bazalarining sifati, o'zaro mosligi va uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi.

Zamonaviy tilshunoslikda turli xil terminologik ma'lumotlar bazalari mavjud bo'lib, ular maqsadi, qamrovi va foydalanuvchi auditoriyasiga ko'ra farqlanadi.

Institutsional terminologik ma'lumotlar bazalari muayyan tashkilot yoki muassasa ichida foydalanish uchun yaratiladi. Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining UNTERM tizimi, Yevropa Ittifoqining IATE bazasi va boshqa xalqaro tashkilotlarning terminologik tizimlari shu turkumga kiradi⁵⁹. Bu bazalar ko'p tilli hujjatlar bilan ishlashda izchillik va standartlashtirishni ta'minlaydi.

Soha terminologik ma'lumotlar bazalari ma'lum bir fan yoki sohaning terminologiyasiga bag'ishlangan bo'ladi. Tibbiyot, huquq, texnika, iqtisodiyot va boshqa sohalarida bunday ixtisoslashgan bazalar yaratilgan⁶⁰. Ular mutaxassislar va tarjimonlar uchun ishonchli terminologik manba vazifasini bajaradi.

Milliy terminologiya banklari davlat miqyosida terminologiya ishlarini muvofiqlashtirish uchun tashkil etiladi. Skandinaviya mamlakatlari, Kanada, Fransiya va boshqa davlatlar milliy darajadagi terminologik ma'lumotlar bazalariga ega⁶¹. Bu tizimlar davlat tilining rivojlanishi va zamonaviy bilimlarni milliy tilda aks ettirishda muhim rol o'ynaydi.

Terminologik ma'lumotlar bazalari zamonaviy jamiyatning turli sohalarida keng qo'llanilmoqda va ularning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Terminologik ma'lumotlar bazalarining ko'plab afzalliklari mavjud bo'lsa-da, ularni yaratish va saqlashda ba'zi qiyinchiliklar ham uchraydi. **Afzalliklar** orasida terminologik izchillikni ta'minlash, tezkor axborot qidirish, ko'p tilli kommunikatsiyani yaxshilash, terminologiya ishlarini markazlashtirish va standartlashtirish, sifat nazoratini osonlashtirish va hamkorlikda ishlash imkoniyati ajralib turadi. Terminologik ma'lumotlar bazalari tarjima jarayonini tezlashtiradi va xatoliklarni kamaytiradi.

Muammolar orasida ma'lumotlarni muntazam yangilash zaruriyati, sifatli terminologik ma'lumotlar to'plashning qiyinligi, foydalanuvchilarni o'qitish zarurati va texnik murakkablik kabi omillar mavjud. Shuningdek, terminologiyaning dinamik tabiati tufayli terminologik ma'lumotlar bazalarini doimiy ravishda yangilash va kengaytirish talab etiladi.

Ko'rinadiki, terminologik ma'lumotlar bazasi zamonaviy tilshunoslik va amaliy terminologiyaning muhim vositasi hisoblanadi. U terminologik axborotni samarali boshqarish, tarqatish va foydalanish imkonini beradi. Globallashtirish

⁵⁹ UN Terminology Database. UNTERM. <https://unterm.un.org/>

⁶⁰ Budin G. A critical evaluation of the state-of-the-art of terminology theory. *Terminology Science & Research*, 12(1-2), 201. – P. 7 – 23.

⁶¹ TermNet. *Terminology and Content Development*. – Vienna: TermNet Publisher, 2005.

sharoitida, ko'p tilli kommunikatsiya va xalqaro hamkorlikning kengayishi davrida terminologik ma'lumotlar bazalarining ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Terminologik ma'lumotlar bazalarini yaratish va rivojlantirish murakkab, ko'p bosqichli va uzoq muddatli jarayon bo'lib, u terminolog, tilshunos, sohaviy mutaxassis va IT mutaxassislarining birgalikdagi mehnatini talab qiladi. Xalqaro standartlarga rioya qilish, sifatni ta'minlash va foydalanuvchilar ehtiyojlarini hisobga olish terminologik ma'lumotlar bazalarining muvaffaqiyatli ishlashining asosiy shartlaridir.

Ko'p tilli terminologik ma'lumotlar bazasini yaratish murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u puxta rejalashtirish, ilmiy yondashuv va turli mutaxassislarning hamkorligini talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Schmitz K.D. Terminology management. In K. Brown (Ed.), *Encyclopedia of Language and Linguistics* (2nd ed., Vol. 12, pp. 574-583). – Oxford: Elsevier, 2006.
2. Temmerman R. *Towards New Ways of Terminology Description: The sociocognitive approach*. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2000.
3. Wright S.E., Budin G. *Handbook of Terminology Management*. Vol. 1. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1997.
4. Sager J.C. *A Practical Course in Terminology Processing*. Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1990.
5. ISO 26162-1:2019. *Management of terminology resources – Terminology databases – Part 1: Design*.
6. Arntz R., Picht H., Mayer F. *Einführung in die Terminologearbeit*. 7. Auflage. Hildesheim: Georg Olms Verlag, 2014.
7. Felber H. *Terminology Manual*. – Paris: UNESCO and Infoterm, 1984.